

ZAMONAVIY MILLIY IQTISODIYOTDA KORXONALARNING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH VA UNING ASOSIY TAMOIYILLARI.

Radjabova Mohinur

Osiyo xalqaro universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14613511>

Annatatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv hisobida milliy iqtisodiyotda korxonalarning boshqaruv hisobini tashkil etish haqida kerakli ma'lumotlar va fanning predmeti haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Bozor mexanizmlari, tannarxini boshqarish, investitsiya loyihalar, inflyatsiya, boshqaruv rejalashtirish, operativ nazorat.

ОРГАНИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА ПРЕДПРИЯТИЙ В СОВРЕМЕННОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЕГО ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ.

Аннотация. В данной статье будет рассказано о необходимой информации по организации управленческого учета предприятий в национальной экономике и о предмете науки в области управленческого учета.

Ключевые слова: рыночные механизмы, управление затратами, инвестиционные проекты, инфляция, управленческое планирование, оперативный контроль.

ORGANIZATION OF MANAGEMENT ACCOUNTING OF ENTERPRISES IN THE MODERN NATIONAL ECONOMY AND ITS BASIC PRINCIPLES.

Abstract. This article will talk about the necessary information on the organization of management accounting of enterprises in the national economy and the subject of Science in management accounting.

Keywords: market mechanisms, cost management, investment projects, inflation, management planning, operational control.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlangan sari xo'jalik yurituvchi barcha sub'ektlarda, ularning faoliyat turi va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish, shuningdek uni yanada takomillashtirishga talab oshib bormoqda. Shu bilan birgalikda qayd etish joizki, ayni paytda korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish amaliyoti, korxonalar rahbarlarining barcha talablariga ham javob bera olmaydi. Buning bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Ular nafaqat boshqaruv hisobini amaliy joriy etish masalalari bilan, balkim uni tashkil etish va yuritishning nazariy va metodologik masalalari va muammolari bilan ham bog'liq.

Xususan, shu borada olimlar o'rtasida boshqaruv hisobining funktsiyalari, ob'ekti va predmeti, metodi hamda tamoyillari borasida ham turli xil qarashlar va munozaralar mavjud.

Boshqaruv hisobi ana shunday ma'lumotlarni boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilish maqsadida korxona ichidagi turli darajadagi boshqaruv rahbarlari uchun shakllantiradi. Boshqaruv hisobining mohiyati korxona rahbarlarining o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan aniqlanadi: u ichki tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining manfaatlari hamda maqsadlaridan kelib chiqqan holda ma'muriyat qarori bilan yana o'zgartirilishi e'la ma'lum bir tuzatish-qo'shimchalar kiritilishi ham mumkin. Oddiyroq holda ifoda qilinadigan bo'lsa, har bir korxona o'zining oldiga qo'ygan maqsadlari va real imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib, boshqaruv hisobini turli ko'rinish va shakllarda tashkil etishlari mumkin. Boshqaruv hisobining vujudga kelishi xarajatlar hisobini tashkil etish va yuritish bazasida yuzaga kelgan, shuning uchun uning asosiy tarkibiy qismini turli yo'nalishlardagi kelgusi va o'tgan davrlar uchun ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil etadi. Ushbu holat keyingi vaqtda milliy iqtisodiy adabiyotlarda paydo bo'lgan "boshqaruv hisobi" tushunchasini aniqlashda, shuningdek buxgalteriya hisobini olib borishda va boshqaruv faoliyatida uning ma'lumotlaridan foydalanishda muhim rol o'ynaydi. E'tirof etish joizki, ana shu fikr-mulohazalardan kelib chiqib, bir qator olimlarimiz boshqaruv hisobini xarajatlar hisobi bilan bir yaxlitlikda talqin qilishadi.

Yana bir muhim holat – bu boshqaruv hisobining bevosita ma'lumotlarning atroflicha tahlilini tashkil etishi bilan bog'liq bo'lib, u nafaqat nazariyachi olimlar, shuningdek amalietchilar tomonidan ham boshqaruv hisobi mohiyatini aniqlashda e'tirof etiladi. Boshqaruv hisobi tarkibida ma'lumotlar yig'iladi, guruhlanadi, identifikatsiya qilinadi, tarkibiy bo'linmalar faoliyatini natijalarini to'liq aks ettirish hamda korxonaning foyda olishda qatnashish darajasini aniqlash maqsadlarida o'rganiladi. Hisob siyosatida ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi amaldagi va rejadagi xarajatlarni hamda ishlab chiqarish xarajatlarini taqqoslash jarayoni sifatida keltirib o'tiladi. Boshqaruv hisobi mohiyatini aniq belgilashda korxonaning ma'lumot nazorat tizimi yaxlitligini ifodalovchi belgilar yig'indisi: uzluksizlik, aniq bir maqsadga qaratilganlik, ma'lumotlar ta'minotining to'liqligi, jamiyatdagi ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning amaliytda aks ettirilishi, tashqi va ichki sharoitlar o'zgarishi natijasida boshqaruv ob'ektlari ta'sirchanligining o'zgarishi va shu kabilarni ko'rib chiqish taqozo etiladi. Ko'pgina mualliflar boshqaruv hisobi mohiyati to'g'risida turli-tuman qarashlarni ifodalaydi.

Zamonaviy milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqaruv hisobi mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Boshqaruv hisobi - korxonaning muammolarini hal etish va istiqboldagi rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tezkor (operativ) boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar hisobi, me'yorlashtirish, rejalashtirish, nazorat va tahlil tizimini ifodalovchi ma'lumotlarni bir tizimga soladi.

Berilgan ushbu ta'rif boshqaruv hisobining ob'ektlari, belgilari va maqsadlaridan kelib chiqib berilgan bo'lib, bular ushbu maqola doirasida atroflicha ko'rib chiqiladi. Boshqaruv hisobining funktsiyasini belgilashda bir qator rivojlangan bozor munosabatlariga ega mamlakat, shuningdek rossiyalik olimlar quyidagi qarashlarni alohida ta'kidlaydilar:

1. Boshqaruv hisobi boshqaruvning turli bo'g'inlarini ma'lumotlar bilan ta'minlaydi; operativ nazorat funktsiyasi hamda istiqbolli rejalashtirish funktsiyasini bajaradi.

2. Boshqaruv hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlar tayarlaydi; turli xil boshqaruv bo'g'inlari uchun tahliliy hisobotlarni tuzadi; rahbarlarni chetlanishlarni boshqarishga yo'naltiradi.

3. Boshqaruv hisobi biznesni tizimli boshqarish uchun boshqaruvning turli bo'g'inlarini relevant ma'lumotlar bilan ta'minlaydi; korxonaning turli bo'g'inlarini boshqarish uchun zaruriy ma'lumotlarni shakllantiradi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasiga tayanib, shuningdek mavjud qarashlarni tanqidiy o'rgangan holda boshqaruv hisobining quyidagi funktsiyalarini belgilash mumkin, deb hisoblaymiz: boshqaruv hisobi biznesni va uning segmentlarini tizimli boshqarish uchun relevant ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va rahbarlarni u bilan muntazam ta'minlaydi; operativ nazorat hamda istiqbolli rejalashtirish funktsiyalarini bajaradi.

Boshqaruv predmeti - ishlab chiqarishning maksimal samaradorligiga erishish maqsadida korxona xodimlari faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish uchun boshqaruv ob'ekti ekanligi boshqaruv jara'ni ta'sir o'tkazishdir. Boshqaruv rejalashtirish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va nazorat qilish yordamida boshqaruv predmetiga ta'sir o'tkazadi. Aynan shu funktsiyalarni boshqaruv hisobi bajarib, u o'z tizimini yaratib, boshqaruvning maqsad va vazifalariga javob beradi. Hozirgi paytgacha boshqaruv hisobi predmetining aniq ta'riflari mavjud emas. Korxona faoliyatini boshqarish tizim va metodlari o'zgarib bormoqda, shunga muvofiq tarzda boshqaruv hisobining tarkibi o'zgarib bormoqda. Korxonalaridagi o'zgaruvchan tashqi omillar (inflyatsiya, ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish va sh.k.) ta'siridagi xarajatlar va daromadlar hisobini modellashtirishga tegishlidir. Ana shu yerda boshqaruvning ob'ektlari va sub'ektlari tarkibi o'zgaradi.

Boshqaruv to'g'risidagi fan boshqaruv hisobi predmeti haqidagi kontseptsiyani ham shakllantiradi. Boshqaruv hisobining predmeti - xo'jalik faoliyatini boshqarish jarayonining barcha bo'g'inlaridagi ob'ektlar yig'indisidir. Boshqaruv hisobining ob'ektini belgilashda nafaqat amaliyotchilar, balkim nazariyachi olimlar o'rtasida ham yaqin bo'lgan quyidagicha yondoshuv mavjud: boshqaruv hisobining ob'ekti, bu korxonaning butun faoliyati hamda uning alohida segmentlari. Shu bilan birgalikda, alohida ta'kidlash kerakki, amaliyotchilar ham, nazariyachi olimlar ham korxonaning segmentini belgilashga turlicha e'ndashishadi.

Korxona segmenti deyilganda, nafaqat korxonaning alohida olingan bo'g'inlari, balkim boshqaruv hisobining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, mahsulot turlari hamda bir xil jaraenlar ham hisobga olinishi kerak. Boshqaruv hisobining ob'ektlarini sxematik tarzda quyidagicha aks etirish mumkin.

Boshqaruv hisobi mohiyatini belgilashda uning muhim xususiyatini ta'kidlash lozim: boshqaruv hisobi boshqaruv jarayonini hisob-kitoblar jaraeni bilan uzluksiz bog'laydi.

Boshqaruv hisobining metodi, boshqaruv hisobi ob'ektlarini korxonaning yagona ma'lumotlar tizimida aks ettirish imkonini beradigan usul va uslublar yig'indisidir. Ana shu usul va uslublarga buxgalteriya hisobining metodi elementlari (xujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya, buxgalteriya hisob raqamlari, ikki eqlama e'zuv, buxgalteriya hisoboti va balans), shuningdek moliyaviy va iqtisodiy matematik tahlil kiradi. Korxona ma'lumotlar tizimida boshqaruv hisobi ob'ektlarining turli xil usullar va yo'llar orqali ifoda etilishi boshqaruv hisobi metodi deb ataladi.

Boshqaruv hisobining metodi, boshqaruv hisobi ob'ektlarini korxonaning yagona ma'lumotlar tizimida aks ettirish imkonini beradigan usul va uslublar yig'indisidir. Ana shu usul va uslublarga buxgalteriya hisobining metodi elementlari (hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya, buxgalteriya hisob raqamlari, ikki eqlama e'zuv, buxgalteriya hisoboti va balans), shuningdek me'orlashtirish, rejalashtirish, nazorat qilish, moliyaviy va iqtisodiy matematik tahlillar ham kiradi.

REFERENCES

1. Supiyevna, B. M. (2024). IMPROVING THE EFFICIENCY OF LEADER LABOR IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 51-55.
2. Mamlakat, I. (2023). THE USE OF DICTIONARIES IN READING AND UNDERSTANDING LITERARY TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 285-292.
3. Bazarova, M., Zhomartkyzy, G., & Kumargazhanova, S. (2019). Using an ontological model for transfer knowledge between universities. In *Computational and Information Technologies in Science, Engineering and Education: 9th International Conference, CITech 2018, Ust-Kamenogorsk, Kazakhstan, September 25-28, 2018, Revised Selected Papers 9* (pp. 34-43). Springer International Publishing.
4. Заявитдинова, Н. М., Базарова, М. С., & Ходжиев, А. Б. (2022). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА СТРАТЕГИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА. ББК 65.0501 А 43, 265.

5. Supievna, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 79-83.
6. Supievna, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 381-386.
7. Supiyevna, B. M. (2023). TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA PERSONALNI BOSHQARISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 409-414.
8. Supievna, B. M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION.
9. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).
10. Supievna, B. M., & Firuza, S. (2023). STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(7), 22-25.
11. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).
12. Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 134-139.
13. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибадорлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.
14. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, 2(12), 506-512.
15. Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 16-18.
16. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH KO'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 113-118.
17. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).

18. Рахманкулова, Н. (2023). Роль инвестиций в региональном экономическом развитии. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.
19. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). Роль образования в развитии предпринимательства. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 1(2), 23-28.
20. Явмутов, Д. Ш., & Ракхманкулова, Н. О. (2021). Бухоро Вилятида Кичик Саноат Зоналарининг Ривожланиши. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 10-13.
21. Nafisa, R. (2024). Organization of Management in Small Business and Private Entrepreneurship. *Miasto Przyszłości*, 48, 503-509.
22. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASITERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 73-76.
23. Sh, Y. D., & Rakhmankulova, N. O. (2021). Risks in the Process of Digitalization of Business Activities. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 19-22.
24. Raxmonqulova, N. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 340-347.
25. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАСЧЕТА ПРОДУКЦИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ. *ЎТМОЎ ФАНЛАРДА INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 12-17.